

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, B.Qurbonova	
Hamkorlikdagi faoliyat treningini o'tkazish usullari.....	9
T.Egamberdieva, N.Gafurova	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda gender tengligi masalalari	13
N.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari	17
I.Siddiqov	
Aralash ta'lim – bo'lajak tarixchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida	21
M.Barakayev, X.O'rinov	
Matematika o'qituvchisi tayyorlash metodik sistemasining nazariy jihatlari.....	26
X.Umarov	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari	31
N.Xodjibolayeva	
Talabalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda Abdurauf Fitratning ijtimoiy-ekologik qarashlarining ahamiyati	39
S.Uraimov	
Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlarining pedagogik tahlili	44
D.Malikova	
Ta'lim makonida madaniy muhitning tarixiy omillari.....	48
A.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish tizimi.....	51
I.Sharofutdinov	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish	59
J.Qurbonov	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari.....	65
M.G'ofurova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida tadqiqot metodlarini qo'llashning samaralari	69
G.Maxsudova	
O'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishning rivojlantirishda milliy ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati	74
V.G'aniyeva	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi	78
Sh.Karimova	
Talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasi	82
F.Raximova	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish muammolari	85
D.Rafikova, Z.Ibroximova	
Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida smart texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari va muammolari.....	88
U.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik-psixologik asoslari	92

**BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING SPORT TURIZMIGA
DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI**

**СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ЗНАНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗКУЛЬТУРЫ О
СПОРТИВНОМ ТУРИЗМЕ**

**SYSTEM OF DEVELOPING THE KNOWLEDGE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION
TEACHERS ABOUT SPORTS TOURISM**

G'ofurov Azizbek Umarjonovich¹

¹G'ofurov Azizbek Umarjonovich

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda yangicha yondashuvga asoslangan ta'lim standartlari joriy etish ularning faolligini oshirishda, tanlagan kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otishga, jamiyatdagi turli islohotlarni rivojlantirish to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье представлены мнения о повышении активности внедрения образовательных стандартов на основе нового подхода к подготовке будущих учителей физической культуры, о пробуждении чувства ответственности за выбранную профессию, о развитии различных реформ в обществе.

Abstract

In this article, opinions on increasing the activity of introducing educational standards based on a new approach to the training of future physical education teachers, on awakening a sense of responsibility for the chosen profession, on the development of various reforms in society are presented.

Kalit so'z: ijtimoiy-iqtisodiy, mustaqil ta'lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta'lim, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, innovatsion va raqamli, ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: социально-экономическое, самостоятельное образование, современное мировоззрение, социальная необходимость, непрерывное образование, учителя физической культуры, инновационные и цифровые, образовательные стандарты, образование и обучение, научно-методические.

Key words: socio-economic, independent education, modern outlook, social necessity, continuous education, physical education teachers, innovative and digital, educational standards, education and training, scientific-methodical.

KIRISH

Turizm sayohat sifatida dam olish, hordiq chiqarish, tabiat manzaralarini tomosha qilish, tarixiy-madaniy obidalarni ko'rish, o'rganish kabi faoliyatlarining mazmun va shakllaridan iboratdir. Bunda, eng avvalo, ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni kengaytirish va jismoniy kamolotni tarbiyalashdek eng murakkab hamda ulug'vor maqsadlar amalga oshiriladi.

Turizm dunyoni ko'rish, bilish, o'rganish va dam olish maqsadida tashkil etiladigan sayr-sayohat ma'nosini anglatadi va u sayyoramizdagi odamlar hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Turizm va turistik faoliyatda inson tabiatga, turli mamlakatlar madaniyatiga, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga, jismoniy va ruhiy quvvatni tiklash, sog'lomlashtirish, ilmiy-tadqiqot va badiiy ijodni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Shu ma'noda, bo'lajak kadrlarni turistik faoliyatga yo'naltirish va bu orqali ularning dunyoqarashi, hayot tarzi va ish faoliyatiga nisbatan motivatsiyani oshirishga qaratilgan pedagogik jarayonni takomillashtirish dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son Farmonida ta'til davrida Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon, Marg'ilon va Toshkent shaharlarida talaba-yoshlar va o'quvchilar uchun ularning tarix, madaniyat va o'zbek xalqining an'analari to'g'risida bilimlarini oshirishga yo'naltirilgan turli konsert dasturlari, teatrlashtirilgan tomoshalar va boshqa tadbirlar o'tkazilishini nazarda tutuvchi madaniy-bilishga oid «Shahar haftaligi» festivallarini o'tkazish; «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish Dasturida ishtirok etishga talaba-yoshlarni da'vat qilish vazifalari belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko'plab tadqiqotlarda turizm tushunchasiga «mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, ko'ngil ochish obyektlari va vositalari, bilim orttirish, davolash, sog'lomlashtirish, sportga doir, diniy-marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistik-ekskursiya va gid-tarjimonlik xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotlar majmuidir» [1:42] degan ta'rif shakllantirilgan. Lekin turizm ko'p tarmoqli soha ekanligini, tez o'zgarib borishini inobatga olib, berilgan ushbu ta'riflarda uning butun mazmuni qamrab olishning aslo imkoni mavjud emas. Misol uchun, tadqiqotchi M. Alimovning ilmiy tadqiqot ishida «turizm – bu elementlari o'zaro poliiyerarxik aloqalar va munosabatlar tizimi orqali bog'langan, pirovard natijalarga erishishda bevosita tashrif buyuruvchilarning ishtiroki bilan tavsiflanadigan, tarmoqlararo majmuaning ko'p qirrali funksional tuzilmasi negizida shakllanadigan, hamda tashqi muhit o'zgarishiga yuqori ta'sirchanlikka ega ochiq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir» [2] deyiladi. Fikrimizcha, ushbu xususiyatlar turizm va uning madaniy faoliyat shakli sifatidagi o'ziga xosligi bir qator sabablarga ko'ra vujudga kelib, ularning eng asosiysi ijtimoiy-madaniy voqelikning rivojlanish tendensiyalari bilan izohlanadi.

Yuqoridagi ta'riflardan va olimlarning yondashuvlaridan kelib chiqqan holda, turizm turistik savodxonlik, turistik salohiyat, turistik faollik tushunchalari bilan bog'liq tushunchalar ekanligi namoyon bo'ladi. Shuningdek, turizm insonning o'zi yashab turgan joyini ma'lum muddatga tark etishi orqali sayohatlar, sarguzashtlar, davolanish, sport bilan shug'ullanish, tijorat maqsadlarida sayohat qilish, ziyorat qilish bilan izohlash mumkin. Insonning o'zi yashab turgan hududni jamoa bo'lib tark etishi ijtimoiy munosabatlarni yanada mustahkamlaydi. Turizm faoliyatini tartibga soluvchi turizm madaniyatiga tegishli turistik savodxonlik, turistik salohiyat, turistik faollik tushunchalari tadqiqot ishining ijtimoiy-falsafiy kategoriyalari hisoblanadi. Turizmning aksiologik xususiyati uning madaniyati va ijtimoiy-falsafiy mazmunini belgilaydi. Ushbu faoliyatning madaniy va gedonistik, evdomonistik xarakteri insonning jismoniy, estetik, intellektual sohasiga ijobiy ta'sir etadi. Bu esa turizm faoliyatini milliy qadriyatlarga rioya qilish bilan birga, insonning jamiyatda ijtimoiy mavqeyini belgilash omiliga aylantirmoqda. Bugungi kunda butun dunyo xalqlari madaniyatlari almashinuvi jarayonlari qadriyat sifatida e'tirof etib borilayotgan faoliyatning yangi shakllari bo'lgan ta'lim, turizm, shou-biznes, ommaviy madaniyat orqali yoyilmoqda. Jamiyatda bunday jarayonlarning jadallashishi industrial jamiyat rivojlanishi sabablarini keltirib chiqarishda muhim omil hisoblanadi. [3:17] Madaniyatlar almashinuvi davrida shaxsda «turistik savodxonlik»ning yuksalganligi sayohatlar davrida o'zining qat'iy pozitsiyasida turishiga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqning turistik savodxonligi yuksakligi orqali progressiv jarayonlarning davlat tomonidan tartibga solib turilishi hamda qadriyatlarini saqlab qolish, tartibga solinishini ta'minlaydi. Inson sayohat davomida turli xalqlar madaniyati bilan tanishadi, tabiat go'zalligidan bahramand bo'ladi, shu sabab turistik savodxonlik shaxsda geografiya, biologiya, tibbiyot, tarix, geologiya, iqtisod, adabiyot, dinshunoslik, ma'naviyat va boshqa fanlar bo'yicha olgan bilim hamda malakalarini qo'llash imkonini yaratadi. Turizmga oid tadqiqotlarda ziyorat turizmining insonning ruhiy, estetik tarbiyalashdagi vazifasi alohida ta'kidlangan. Ziyorat diniy rasm-rusumlarni bajarish bilan birga amalga oshiradigan insonning turli muqaddas makonlarga sayohatidir. U kishining doimiy yashab turgan manzilidan uzoqlashgan holda sajda qilishga asoslangan diniy yoki dunyoviy muqaddas joylarga ziyorat qilishidir. Ziyorat estetik hissiyot orqali insonni ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishiga ko'maklashadi. Insonlar muqaddas joy va narsalar bilan tanishadilar, ulardan ma'naviy ozuqa oladilar, har xil hodisalarga guvoh bo'ladilar. Bunday jarayonlar ziyoratchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va barkamollikka yetishga ko'maklashadi.

Madaniyatlar almashinuvi davrida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida «turistik savodxonlik»ni rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Turist sayohat davomida turli xalqlar madaniyati bilan tanishadi, tabiat go'zalligidan bahramand bo'ladi, shu sabab turistik savodxonlik shaxsda geografiya, biologiya, tibbiyot, tarix, geologiya, iqtisod, adabiyot, ma'naviyat va boshqa fanlar bo'yicha olgan bilim hamda malakalarini qo'llash imkonini yaratadi.

NATIJALAR

Turizm insonning hissiy va intellektual qobiliyatlari, uning hayot to'g'risidagi tasavvurlari, nafaqat tabiiy zaruriyat, balki go'zallik qonunlari asosida yaratilgan real narsa-hodisalar bilan birgalikda xulq-atvor shakllarini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Hozirgi davrda turizm insonning nafaqat dunyoqarashini rivojlanish natijalarini aks ettirish shakli, balki jamiyat va tabiat o'rtasidagi

PEDAGOGIKA

munosabatlarni, ularning ahamiyati to'g'risidagi umumbashariy g'oyalarni aks ettirishning o'ziga xos o'zgarimas modelidir.

Odamlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi sayyohlik va sayohat maqsadida amalga oshiriladi. Bular bir-biri bilan o'ta yaqin va uzviy aloqada bo'lgan inson faoliyati va harakati bilan bog'liq tushunchalardir. Ammo ular bir-biridan ma'lum belgilari bilan farq ham qiladi.

Sayyohlik va sayohat orqali odamlar bir qancha faoliyat turlarini bajaradilar. Bularga:

- boshqa joyda dam olish;
- sport bilan shug'ullanish;
- atrof-muhitni bilish va o'rganish;
- salomatlikni tiklash, davolanish;
- yaqinlarinikida mehmonda bo'lish;
- savdo-sotiq ishlarini bajarish;
- ishlab pul topish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga borish;
- ziyorat qilish kabi faoliyatlar kiradi.

Ushbu harakat va tushunchalarning deyarli hammasi sayohatga kiradi. Turizm esa sayohatdan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. U sayohatning bir turi bo'lib, boshqa joyda ishlash, savdo-sotiq yoki boshqa ishlar bilan pul topish maqsadi bo'lmasligi kerak. Bu ikki tushunchani bir-biridan ma'lum darajada farq qiladigan holatlar aynan shulardir.

Turizm orqali ta'lim faoliyatining maqsadi boshqa sivilizatsiyalarning qadriyatlarini munosib hurmat qilgan holda milliy qadriyatlarning ustuvorligiga yo'naltirilgan shaxsni shakllantirishdir.

Talabalar uchun turistik sayohatlar bilish faoliyatini samarali rivojlantiradi. Bilim olish yo'lidagi muayyan qiyinchiliklarni yengib, o'rganishga intilishda namoyon bo'ladigan bilish jarayoni va natijasiga emotsional va baholovchi munosabat sifatida ta'riflash mumkin. Turistik sayohatlar tashkil etish – bo'lajak geografiya, tarix o'qituvchilari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kelgusi kasbiy faoliyatida turizmni tashkil etish uchun quyidagilar muhimdir:

- havaskorlik turizmidagi asosiy yo'nalishlarni bilish;
- turizm sohasidagi umumiy kasbiy nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni namoyish etishga tayyorlik;
- o'quv sayohatlar uchun yo'nalishlar tuzish tamoyillarini tushuna olish;
- me'yoriy hujjatlardan foydalanishga tayyorlik;
- kasbiy faoliyatda tashkilotchilik va boshqaruvchilik qobiliyatidan foydalana olish;
- o'z turistik-pedagogik faoliyatini aks ettirish, uni yanada kasbiy takomillashtirish nuqtayi nazaridan korreksiyalar;
- ularning turistik va pedagogik kompetentligini takomillashtirish yo'llari, usullari va shakllarini loyihalash.

Turizm insonning tabiat va jamiyat bilan ongli, ijodiy aloqasidan iborat bo'lgan faoliyatdir. Turizm da inson tabiatning qonun va xossalarini o'rganish bilan bir qatorda yangi imkoniyatlarni ochadi va yangi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi, unga muvofiq tarzda tabiatda mavjud bo'lmagan yangi narsalar yaratiladi. Shu bois, gnoseologik fenomen sifatida turizmning muhim xususiyatlari ni maqsad (qadriyatlar) bo'yicha sayohat qilish; estetik-hissiy xususiyati; olam, narsalarning o'zlashtirilishi hamda kognitivlik sifatida tasniflash mumkin.

Mamlakatimizda turistik faoliyatga ta'sir ko'rsatuvchi qatlam, uni rivojlantiruvchi kuch talaba-yoshlar qatlamidir. Yoshlar turizmi bugungi kunda turizmning jadal sur'atlarda rivojlanayotgan turlaridan biri bo'lib, keng ma'noli tushuncha hisoblanadi. Turli xorijiy adabiyotlarda yoshlar turizmiga turlicha ta'rif berilgan va Butunjahon turizm tashkiloti ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: «16-29 yosh oralig'idagi shaxslarning odatdagi yashash muhitidan boshqa xalqlar madaniyati, hayot tarzi, rasmiy va norasmiy tarzda bilim olish maqsadidagi bir yildan oshmagan sayohatlariga aytiladi».[5] Demak, talabalarni ham yoshlar turizmining bir qismi sifatida qo'llab-quvvatlash, ularni talabalik yillaridayoq turistik faoliyatga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugun dunyo bo'ylab sayohat qilayotgan yoshlar turli maqsadlarda safar qilishayotgan bo'lib, maqsadlaridan kelib chiqqan holda ularni quyidagicha turlarga ajratish mumkin:

Talabalarni turistik faoliyatga qiziqtirishning eng samarali yo'li ta'lim turizmidir. Shu bilan birga, muzey pedagogikasi ham ularni yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ta'lim turizmi yoshlarning o'z bilim doiralarini kengaytirish, bilim olish maqsadida xorijiy oliy o'quv

yurtlariga borib tahsil olishi, institutlar doirasida tuzilgan xalqaro talabalar almashinuvi dasturlarida qatnashishlari kabilarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda bu turdagi turizmni yo'lga qo'yish uchun barcha chet davlatlar ta'lim dargohlari, korxonalari bilan shartnomalar tuzilib, qiziqarli turlar tashkil etib sayyohlarni jalb qilish mumkin. Bunda talabalar imkoni bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar boshqa davlatga sayohat qilishadi va u yerda ta'lim olishadi.

Ta'lim turizmida har bir talaba xohlagan yo'nalishida bilimlarni egallash jarayonida nazariya va amaliyotni birga olib boradi. Masalan, tarix yo'nalishidagi talabalar qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro, Xivada, Toshkentda, Jizzaxda, Andijonda o'z bilimini oshirib, ekskursiyalar uyushtirishlari mumkin. San'at va hunarmandchilikka qiziqqan talabalar hunarmandchilik maktablarida o'qib, ularni amalda qo'llashlari uchun yarmarka va festivallarda qatnashish imkoniyati bo'ladi. Demak, O'zbekistonda ta'lim turizmining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o'sishiga katta turtki bo'ladi hamda uning rivojlangan mamlakatlar qatorida turishi uchun imkon yaratiladi.

Sayorlar (ekskursiya) asosan turli o'lkalarda o'tkazilishi tufayli qatnashchilarning faol harakati ma'lum darajada kamayadi, ba'zan esa umuman bo'lmaydi. Shu sababdan sayrlar jarayonida jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish, eng qulay usullarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ulami quyidagi shakllarda o'tkazish mumkin:

1. Ertalabki gigiyenik gimnastika mashqlarini mustaqil bajarish yoki guruh shaklida tashkil qilish (rahbar yoki mehmonxona, turbaza xodimi).

2. Sayohat manzillaridan chiqish yoki tomoshalar cho'zilgan paytda o'sha manzilda gavda harakatlariga (yurish, egilish, burilish, o'tirib-turish, joyda sakrash, nafas olish va chiqarish) doir 4-6 ta mashqlarni bajarish. Bunda mustaqil holatda yoki uyushgan holda (guruh) kishilarning yoshi va jinsiga qarab bajarish zarur bo'ladi.

3. Bo'sh paytlarda xiyobonlar, manzarali joylar, sport inshootlarida yurish, yugurish, sakrash, turli o'yinlar (futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, badminton, harakatli o'yinlar, turli estafetalar) va harakatlarni mustaqil yoki uyushgan holda (guruh) bajarish.

4. Sog'lomlashtirish markazlari, turizm maskanlari (baza) va tog'li sharoitlarga olib chiqilganda soylik, tepa-qir va so'lim joylarda yurish, mashqlar bajarish.

Hozirgi davr ijtimoiy-madaniy turmush sharoitlar har bir kishidan o'z sog'ligi uchun kurash olib borishni taqozo etadi. Shu sababdan sayohatda ishtirok etuvchilar; tarbiya mashqlarining majmualari (kompleks) va ularni bajarish yo'llarini bilishlari lozimdir. Shu asosda sayr-sayohatlarda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni kanda qilmaslikka odatlanishlari zarur bo'ladi.

Kun bo'yi va bir necha kunlab piyoda yurishlar har qanday chiniqqan kishilarni ham toliqtiradi va zaifroq kishini charchatadi. Shuningdek, tun bo'yi uxlash, dam olish, ovqatlanish jarayonlarining cho'zilishi esa kamharakatchanlikka olib boradi. Shu asosda jismoniy tarbiya vositalari bilan shug'ullanish va shug'ullantirishda ikki holat e'tiborga olinadi, ya'ni:

1. Toliqqan, charchagan gavda (tana) a'zolarini dam oldirish, faoliyatlarni qayta tiklash (rekreatsiya) mashqlarini qo'llash (dam oldirish, siypalash, uqalash, sekin harakat qilish).

2. Harakatlar susayib, gavda a'zolarining chigallarini yozishda (uyg'otish), tez harakatchanlikni (yugurish, sakrash, osilish, toshlarni ko'tarish, o'zlari sevgan maxsus mashqlarni bajarish) ta'minlovchi majmui (kompleks) mashqlarni mustaqil ravishda yoki uyushgan (guruh) bo'lib bajarish. Buning uchun esa sayohatchilarda avvaldan egallangan amaliy malakalar bo'lishi lozim.

Sayohatlar jarayonida har bir qatnashchi qon tomirining urish mezonlari, nafas olish va chiqarish tartiblari, mashqlar oralig'ida dam olish va ular bilan bog'liq amaliy faoliyatlarni bilishi, o'z ustida tajriba- sinov olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy mashqlar, sport o'yinlari, harakatli o'yinlar, estafeta va turizm texnikasiga doir ba'zi mashqlarni tashkil qilish va o'tkazish o'qituvchi-instruktor yoki guruhdagi mas'ul kishi tomonidan olib borilishi, doimiy nazorat qilib borishi shart. Bu esa ba'zi bir kutilmagan hodisalarning oldini olish, ko'ngilsiz voqealarning yuz bermasligiga kafolat bo'ladi.

MUHOKAMA

Xulosa shundan iboratki, turizmning barcha shakllari va turlari shug'ullanuvchi va qatnashchilarning jismoniy tayyorgarligini tarbiyalash, sayohatlar jarayonida nazariy bilimlarni

PEDAGOGIKA

kengaytirish, amaliy malakalarni mustahkamlashda xizmat qiladi. Ayniqsa, piyoda yurish sayohatlarida tog' turizmi, g'or turizmi, qoyalarni zabt etish turizmi, sportcha chamalab topish (sportivnoye oriyentirovaniye) va boshqa turlardan maqsadli foydalaniladi. Bunda har bir shug'ullanuvchining sayohat qoidalariga to'la rioya qilish, gavda (tana-organizm) a'zolarining to'g'ri ishlashi, ayniqsa qon aylanishi, nafas olish va ular bilan bog'liq. Bugungi kunda turizm inson dunyoqarashini kengaytiruvchi omil sifatida o'rganilmoqda. So'nggi o'n yilliklardagi ijtimoiy-madaniy muhit, madaniy o'zgarishlar, ijtimoiy-madaniy harakatni idrok etishda yangi bosqichga ko'tarildi. Turizm orqali umummadaniyat haqidagi tasavvurning yuksalishi turizm madaniyati bilan hamohang holatda quyidagicha namoyon bo'ladi:

- shaxs, guruh va umumiy jamiyatning dunyoqarashini kengaytirish;
- ma'lum ijtimoiy makonning madaniyatiga tegishli har qanday muhitni qabul qilish;
- insonning yashash hududi va qoidalarining o'zgarishi va ularning global ravishda

kengayishi;

Turistik madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan estetik ehtiyoj ijtimoiy va semiotik haqiqat sifatida boshqa madaniyatga qiziqish va o'rganishni o'z ichiga oladi. Biroq, turizm madaniyatini belgilovchi omillari bo'lgan milliy qadriyatlarga amal qilinmasa inson va jamiyat munosabatlariga salbiy ta'sir etishi mumkin. «Globallashuvga ziddiyatlilik, ko'pqirralilik, dinamika va kutilmagan xususiyatlar xosdir. Bir tomondan, u inson taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar olib kelsa, ikkinchi tomondan, ayrim davlatlar va xalqlarni iqtisodiy va siyosiy jihatdan boshqa davlatlarga qaram qilib qo'ymoqda. Bunday holat siyosiy jihatdan globallashuvning ziddiyatli, bir vaqtda ijobiy va salbiy, ko'p hududlarni qamrab oluvchi va lokal, birlashtiruvchi va bo'luvchi mohiyatga egaligi bilan bog'liq».[6] Bunday jarayonlarda turizm o'zining salbiy xususiyatlarini namoyon etishi, inson dunyoqarash darajasini pasaytirishi, inson ongini salbiy ma'lumotlar bilan to'ldirishi va ijtimoiy fikrni o'zgartirishi ham mumkin.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga qiziqishlari ma'lum bir tartibda, qonuniyatlarga muvofiq shakllanadi va ro'yobga chiqadi. Asosan tarbiyaviy xarakterga ega turizmning mazmuni, uning rivojlanish xususiyatlari va istiqbollarini inobatga olgan holda turizm pedagogikasida quyidagi ikkita bosh yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) turizm sohasi mutaxassisini tayyorlash, ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti;
- 2) turizm faoliyatida shaxsni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti.

Turizm faoliyatining tarbiyaviy vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin: altruistik hayotiy pozitsiyani tarbiyalash; shaxs barqarorligi, shaxs mustaqilligi, qiyinchilikka bardosh berish qobiliyati, qat'iyatlilik va iroda mustahkamligi; ochiqlik, insonlarga hurmat. Ushbu maqsadni amalga oshirish talabalarning shaxsiy harakatlarini tahlil qilish, o'z-o'zini va o'rtoqlarining harakatlarini baholash, o'zini o'zi bilishga intilish qobiliyatini rivojlantirish jarayonida ro'y beradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga tayyorlashning pedagogik jarayondagi o'rni uning bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi va ko'maklashishi bilan belgilanadi. Jumladan, shaxsni shakllantirish ma'nosida umuminsoniy qadriyatlarni egallash, jahon madaniyati to'g'risida yaxlit va muqarrar tasavvurga ega bo'lish, ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishni nazarda tutadi. Ijtimoiy nuqtayi nazardan, turizm talabalarning ijtimoiy madaniyat, ayniqsa, ijtimoiy muloqot va kommunikativlikni shakllantirishini taqozo qiladigan fiziologik, psixologik, biomexanik, biokimyoviy jarayonlar haqidagi bilim va tushunchalarga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Turizm, eng avvalo, sog'lom avlodni tarbiyalash, ularning jismoniy va ma'naviy kamolotini o'stirish, kasbiy-amaliy tayyorgarliklariga ko'maklashish, o'lkamizning go'zal tabiati, tarixiy-madaniy obidalarini o'rganishga muhim omil hamda tadbir bo'lib qolishi lozim.

Turizm bo'yicha (barcha turlar) instruktor-tashkilotchilar toifalarini quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Kichik instruktor-turizm
2. Instruktor -jamoadagi
3. Katta instruktor-
4. Xizmat ko'rsatgan instruktor

Ta'kidlash lozimki, barcha toifadagi instruktorlar o'z jamoalari (xizmat vazifalari) va to'garaklarida sayr-sayohatlar bilan bog'liq bo'lgan tayyorgarlik - tarbiyaviy, tashkiliy, xo'jalik

ishlarini boshqaradi. Buning eng asosiy sababi shundaki, jamoa (seksiya-to'garak) ishlarida shtatli xodimlarning yo'qligi va moddiy-texnik hamda moliyaviy ta'minot ishlari uchun mas'ul kadrlar bo'lmasligidir.

Barcha tur va toifalardagi instruktorlarni tayyorlash tartibi quyidagicha bo'ladi:

- Kichik instruktor jismoniy madaniyat jamoalari va sport klublarda tayyorlanadi;
- Instruktorlar tayyorlash shahar-tuman va sport uyushmalari tarkibidagi turizm seksiyalari tomonidan amalga oshiriladi;
- Katta instruktor esa Respublika yoki sharoiti yaxshi bo'lgan viloyat markaziy turizm seksiyalarida tayyorlanadi.

Piyoda yurish sayohatlari bo'yicha kichik instruktorlar tayyorlashning namunaviy rejasi

№	Mavzular nomi	Soatlar		
		Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar	
			Binoda	Ochiq joyda
1.	O'zbekistonda turizm va uning ahamiyati	2	-	-
2.	Turizm to'garaklarini tashkil etish va uning ish faoliyatlari	2	-	-
3.	Turizm o'lkashunoslik faoliyatlar	2	2	2
4.	Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish	2	2	4
5.	Dam olish kuni va tunab kelish sayohatlarini tashkil qilish	2	2	12
6.	Topografik bilimlarni o'rganish	-	2	8
7.	Sayohatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish	-	2	6
8.	Sayohatlarda jismoniy chiniqish	-	-	4
	JAMI:	10	10	36

Eslatma: a) O'quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalarining sharoiti va shug'ullanuvchilarning soni, qiziqishiga qarab mavzularni qo'shish, soatlar miqdorini ko'paytirish mumkin; b) Mashg'ulotlarni o'tkazishda fan o'qituvchilari va tibbiy xodimlarni jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Turizm bo'yicha instruktorlar tayyorlash Nizomi asosida har bir daraja va toifadagi instruktorlar uchun turizm qiyinchilik toifalari (kategoriya slojnosti) talablarini bajarish shart bo'ladi (yuqorida berilgan kategoriyalarga qarang).

Ta'kidlash lozimki, instruktor va katta instruktorlarni tayyorlovchi markaziy turizm seksiyalarining maxsus rejaları va o'quv dasturlari bo'ladi. Shular asosida jamoalardagi sayohatchilari jalb qilish yo'li bilan ularni amalga oshiradi.

Turizm (sayr-ekskursiya va sayohat turlari) bo'yicha jamoatchi kadrlarni (instruktor va faollar) tayyorlash bilan bog'liq faoliyatlarni o'rganish hamda ulardagi tartib-usullarni amalga oshirishda bo'lajak mutaxassislar quyidagi jarayonlarga itoat etishlari lozim, ya'ni:

1. Jismoniy madaniyat va sport sohasidagi o'quvchi yoshlar va talabalar turizm bo'yicha o'tkazilgan darslar, qo'shimcha mashg'ulotlar jarayonida ba'zi bir ma'lumotlar, talablar, ish uslublarini o'rganishda qiyinchilik, tushunmovchiliklarga duch kelishi mumkin. Ya'ni jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, jismoniy madaniyat va sportni boshqarish kabi fanlarning mazmunidagi tashkilotchilik faoliyatlar, jamoatchi kadrlarni tayyorlashga doir yo'l-yo'riqlar keyingi bosqichlarda (III-II) o'tilishi mumkin. Shu sababdan o'quvchi va talabalar doimo mustaqil izlanish va o'rganish jarayonlarini keyingi bosqichlardagi faoliyatlar bilan bog'lab olib borishlari lozim.

2. Bolalar tarbiya muassasalari, boshlang'ich ta'lim va umumta'lim jarayonlari bo'yicha (fanlar ham) tahsil oluvchi o'quvchi yoshlar va talabalar (pedagogika kollejlari, fakultetlar) turizmdagi barcha faoliyatlarni o'rganishlari, shuningdek, jamoatchi kadrlar tayyorlash yo'lidagi ishlar bilan ham mustaqil ravishda o'rganishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari va maxsus ta'lim beruvchi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining (kasb-hunar kollejlari) o'quvchi yoshlari va talabalar turizm bo'yicha jamoatchi kadrlar, faollar va instruktorlar tayyorlash usullariga ko'proq e'tibor berishlari lozim. Chunki, mehnat jarayonlarida har bir jamoada sayrlar (ekskursiya) va turli sayohatlarni (dam olish, hordiq chiqarish, piyoda yurish, o'lka va tabiat bilan tanishish, sog'lomlashtirish, maxsus testlar talabini bajarish va

h.k.) tashkil qilishda mutaxassislar, rahbar xodimlarning bevosita yordami, ko'rsatmalari zarur bo'ladi.

Yuqorida bayon etilganidek, xalqaro va mahalliy turizmni (ekskursiya) tashkil qilishda O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi va ekosan-tur xalqaro jamg'arma tashkilotlarining quyi (viloyat, shahar- tuman, boshlang'ich tashkilot-jamoa) organlari (tarmoqlar) tomonidan tashkiliy va boshqaruv faoliyatlar amalga oshiriladi.

Turizm bo'yicha fakultet va maxsus-kasbiy kollejlardagi o'quvchi yoshlar va talabalar davlat granti (ta'minoti) va shartnomalar (pullik) asosida ta'lim olib, ular shtatli lavozimlarda xizmat qiladi. Shunday bo'lsa-da, jamoalarda (o'quv va mehnat) ommaviy ravishda yashash joylari hamda tarixiy-madaniy shaharlarga sayr-tomoshalar (ekskursiya) tashkil qilinishi hozirgi kunning da'vati va an'anaga aylanayotgan tashkiliy-boshqaruv tadbiridir. Ularni uyushtirish va o'tkazishda jamoatchi faollar (aktiv) va tashkilotchi-instruktorlarsiz amalga oshirish ancha murakkab hisoblanadi. Shu sababdan, yuqoridagi turizm tashkilotlari va jamg'arma uyushmalari o'zlarining kafolatli-tegishli tashkilotlari, jamoalarida faollar, jamoatchi kadrlar, instruktorlar tayyorlashlari lozimdir. Buning uchun esa, eng avvalo, har bir o'quv muassasalari, ishlab chiqarish mehnat jamoalari, madaniyat, ijodiyot va boshqa sohalardagi muassasalar tarkibida turizm (sayr-sayohat) bo'yicha boshlang'ich jamoa (to'garak, kurs, seminar va h.k.) tashkil etishlari lozim. Bu bilan Respublikada jismoniy tarbiya, sport va turizmga doir amaldagi qoidalar, qarorlarni hayotga singdirish, shu asosda mehnatkash omma va o'quvchi-talaba yoshlarning ma'naviy-jismoniy barkamolligini tarbiyalashda xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilganidek, O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi, Xalqaro ekosan-tur tashkiloti, o'rmon xo'jaligi va qo'riqxonalar tashkilotlarining viloyatlar, shahar-tumanlar, hatto deyarli barcha o'quv muassasalari, ishlab chiqarish mehnat jamoalarida ularning quyi tarmoqlari, boshqaruv tizimlari mavjud. Ularda xizmat qiluvchi mutaxassis xodimlar qamrovi keng va ko'p qirrali ish jarayonlarida barcha faoliyatlarni tashkil qilishda amaliy jihatdan to'la kuch- imkoniyatlarga ega emas, ya'ni shtatlarning kamligi, o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash tamoyillar bularga barcha shart-sharoitlar yaratishga ojizlik qilishi mumkin. Shu sababdan barcha tarmoqlarda (shahar-tuman, viloyat) turizm turlari bo'yicha jamoatchi kadrlar tayyorlash ishlarini yo'lga qo'yishga to'g'ri keladi. Bunda Respublika kasaba uyushmalari Kengashi va uning tarkibidagi jismoniy madaniyat va sport jamiyatining Nizomi, ishlab chiqilgan qaror va uslubiy ko'rsatmalarga tayanishlari zarurdir. Shu asosda sharoitlar, imkoniyatlar darajasida har yili 1-2 marotaba maxsus kurs, seminar mashg'ulotlarini tashkil etib, ularga sportchilar, sayohatchi-faollarni jalb etish yo'li bilan turizm instruktorlarini tayyorlashni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Turizm bo'yicha instruktorlar tayyorlash ishlarini asosan Respublika kasaba uyushmalari Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (1987 y.) maxsus Nizomlar, ko'rsatmalar (instruksiya) va maxsus dasturlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashda Respublika madaniyat va sport ishlari vazirligining (sobiq madaniyat ishlari vazirligi va Respublika davlat sport qo'mitasi) o'ziga xos xususiyatlari mavjud, ya'ni:

1. Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash;

2. Madaniyat va san'at sohasida ixtisosli kadrlar tayyorlash, ikki sohaning ham oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari mavjud. Ularda jismoniy tarbiya va sport, shuningdek, turizm fan sifatida o'qitiladi. Turli sayohatlar tashkil etiladi. Muhimi shundaki, ularga sport turlari bo'yicha federatsiyalar (sport yo'nalishi), badiiy akademiya, teatr jamiyati uyushmasi (madaniyat yo'nalishi) va boshqa jamoatchi tashkilotlar amaliy jihatdan yordam berib boradi. Ya'ni kadrlar tayyorlash, mutaxassislarning malakasini oshirish, ijodiy ko'maklashish kabilar.

Shu o'rinda aytish lozimki, turizm sport turlari bo'yicha mavjud bo'lgan Respublika federatsiyasini qayta tiklash, bunda ommaviy sayr- sayohatlarni rivojlantirishga yo'llar ochib berish lozimdir, ya'ni viloyat, shahar-tuman miqyosida turizm federatsiyalarining tuzilishi va ularning amaliy faoliyatlari instruktor-tashkilotchilarni tayyorlash, turizm musobaqalari (sletlar) va boshqa ommaviy-madaniy tadbirlarni uyushtirishda bevosita yordami bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, turizm bo'yicha instruktor kadrlar tayyorlashda mustaqil g'oyalarni singdirish, ma'naviy-ma'rifiy madaniyat tarbiyasini ustun qo'yish, aholining sihat-salomatligini yaxshilash va o'quvchi yoshlarning jismoniy barkamolligini o'stirish yo'llari asos qilib olinishi lozim.

Instruktorlarning mavqeyini oshirish, o'z ishlarida mas'uliyatlarini chuqur sezish va turizmga ommaviy ravishda hissa qo'shish maqsadida ularga maxsus guvohnomalar (sertifikat) va ko'krakka taqiladigan nishonlarni (znachok) tayyorlash, hamda ularga taqdim etish eng muhim tarbiyaviy jarayondir.

Umumiy xulosa shundaki, mamlakatda turizm harakatini tashkil qilish va boshqarish davlat hamda jamoatchilik tizimlari tashkil etilib, ular aholining turizm bilan faol shug'ullanishlariga imkoniyatlar yaratmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boltabayev M.R. Tuxliyev I.S. Safarov B.SH. Abduraximov S.A. Turizm nazariya va amaliyot.2018.
2. Alimova M.T. Turizm tizimiga oid kategoriyalarning ilmiy-nazariy talqini va ta'riflarini takomillashtirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016.
3. Muzaffarov A.M. Turizm – madaniyatlararo muloqotni pivojlantirish omili. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020.
4. UNWTO – WYSE 2011, The Power of Youth Travel, Volume 2 Available http://florianopoliscvb.com.br/MyFiles/amreports_vol2_thepowerofyouthtourism_eng_lw.pdf Accessed: 11-02-2014.
5. Yuddasheva F.X. O'zbekiston globallashuv sharoitida ma'naviy yangilanishning o'ziga xos xususiyatlari. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2019.
6. Уразова М.Б. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектировочной деятельности: Дисс. ... док. пед. наук. – Т., 2015.
7. Совет Европы: Симпозиум по теме «Ключевые компетенции для Европы»: Док. DECS / SC / Sec (96) 43. – Берн, 1996.
8. Стратегия модернизации содержания общего образования: Материалы для разработки документов по обновлению общего образования. – М.: ООО «Мир книги», 2001.
9. Педагогический словарь. /Под.ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: Академия, 2008.